

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

6 ЖИЛД, 2 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 6, НОМЕР 2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 6, ISSUE 2



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№2 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2023-2>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)

Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафазель Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
и.о. доцент (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)
Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Толипов Файзулла Саидович
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Xodjayev Sobir KEKSALIK VA ERTA QARISH SOTSIOGERONTOLOGIK MUAMMO SIFATIDA.....	4
2. To‘raxo‘jayeva Ra‘no DAVLAT XIZMATCHILARINI KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH AHOLI ORASIDAGI NOROZILIK KAYFIYATINI OLDINI OLISH MEHANIZMI SIFATIDA.....	11
3. Turdikulov Shuxrat SOG‘LIQNI SAQLASH SOHASIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING INSTITUTIONAL YONDASHUVI.....	19
4. Mo‘minov Zokirjon ZAMONAVIY SOTSIOLOGIYA:IJTIMOIIY O‘ZGARISHLARDA MOBILLIK.....	26
5. Xoliqnazarov Rashidjon DUNYO VA MDH DAVLATLARI IJTIMOIIY HAYOTIDA ELEKTRON HUJJAT AYLANISH TIZIMINING O‘RNI.....	33
6. Shokirov Shaxrizod HUQUQBUZARLIK VA JINOYATCHILIKNING OLDINI OLISHDA JAMOATCHILIK FIKRINI TA‘SIRI BO‘YICHA XALQARO TAJRIBA TAHLILI.....	41
7. Nurullayeva Umida XOTIN-QIZLARNI RAHBARLIK LAVOZIMLARIGA KO‘TARILISHI: TO‘SIQLAR VA IMKONIYATLAR.....	51
8. Nazarova Nilufar STRUCTURAL-FUNCTIONAL ANALYSIS OF ENSURING PROFESSIONAL COMPETITIVENESS OF YOUTH OF UZBEKISTAN.....	62
9. A‘zamova Kumush INSON QADRINI YUKSALTIRISHDA REGULYATIV FUNKSIYALARNI RIVOJLANTIRISH.....	72
10. Ixtiyarov Farxod INSON KAPITALINI KEYS METODI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNI TADQIQ ETISH: ASOSIIY TUSHUNCHA VA QONUNIYATLAR.....	78
11. Karimova Maftuna RIVOJLANGAN DAVLATLARNING UMUMIIY TA‘LIM MUASSALARIDA BOLALAR ZO‘RAVONLIGINI OLDINI OLISHGA QARATILGAN CHORA –TADBIRLAR.....	90
12. Butoyev Ilxom SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANISHIDA MA‘NAVIYAT TARBIYASINING TUTGAN O‘RNI.....	98
13. Bozorova O‘lmasxon YOSHLAR III RENESSANS MA'RIFIY STRATEGIYASINING HARAKATLANTIRUVCHI KUCHI.....	103


ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Turdikulov Shuxrat

Toshkent shahar hokimligi
Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limi boshlig'i,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
huzuridagi Davlat boshqaruvi
akademiyasi tadqiqotchisi,
sotsiologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)
e-mail: txshuhrat65@mail.ru

SOG'LIQNI SAQLASH SOHASIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING INSTITUTSIONAL YONDASHUVI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.8399507>

ANNOTATSIYA

Zamonaviy dunyoda korrupsiya fenomeni doimiy ravishda siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy muhitning evolyutsiyasiga moslashib, milliy xususiyatlar va idrok etish stereotiplari bilan bog'liqligini namoyish etadi. Bunday sharoitda korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha xalqaro tajribani o'rganish ayniqsa dolzarb bo'lib qoladi. Maqolada korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xorijiy tajribalari muhokama qilinadi. Biz ushbu yo'nalishda davlat organlari tomonidan belgilangan maqsad va vazifalardan kelib chiqib, korrupsiyaga qarshi kurashning asosiy modellarini belgilab olamiz. Shuningdek, aholining turmush tarzi va ijtimoiy hayotiga ta'sir doirasi masalalarini yoritishga harakat qilingan. Sotsiologik so'rov natijalarida mavjud sog'liqni saqlash sohasida korupsiya va porahurlik yuqori darajada ekanligi taxlil qilingan. Maqolada korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro tajribani Sog'liqni saqlash sohasida ham joriy etish belgilangan.

Kalit so'zlar: korrupsiya, poraxo'rlik, ta'magirlik belgilari, davlat boshqaruvi, dinamika, murosasiz munosabat, ijtimoiy moslashuv, qonun.

Турдикулов Шухрат

начальник отдела внутреннего
антикоррупционного контроля хокимията
города Ташкента, научный сотрудник Академии
государственного управления при Президенте
Республики Узбекистан, доктор философии (PhD)
по социологическим наукам
e-mail: txshuhrat65@mail.ru

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЙ ПОДХОД К БОРЬБЕ С КОРРУПЦИЕЙ В СФЕРЕ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ

АННОТАЦИЯ

В современном мире явление коррупции постоянно адаптируется к эволюции политической, экономической и социальной среды, демонстрируя свою связь с национальными особенностями и стереотипами восприятия. В таких условиях изучение международного опыта борьбы с коррупцией становится особенно актуальным. В статье рассматривается зарубежный опыт борьбы с коррупцией. В этом направлении, исходя из целей и задач, поставленных государственными органами, мы определяем основные модели борьбы с коррупцией. Также была предпринята попытка уточнить вопросы сферы влияния на образ жизни и социальную жизнь населения. Согласно результатам социологического опроса, в современной сфере здравоохранения на высоком уровне находятся коррупция и взяточничество. В статье предусмотрено внедрение международного опыта в сфере борьбы с коррупцией в сфере здравоохранения.

Ключевые слова: коррупция, взяточничество, признаки взяточничества, государственное управление, динамика, непримиримость, социальное регулирование, закон.

Turdikulov Shukhrat Khudoykulovich,
Head of the Internal Anti-Corruption
Control Department of the Khokimiyat
of Tashkent City, Researcher at the Academy
of Public Administration under the President
of the Republic of Uzbekistan,
Doctor of Philosophy (PhD) in sociological sciences
e-mail: txshuhtrat65@mail.ru

AN INSTITUTIONAL APPROACH TO COMBATING CORRUPTION IN THE HEALTH SECTOR**ANNOTATION**

In the modern world, the phenomenon of corruption constantly adapts to the evolution of the political, economic and social environment, demonstrating its connection with national characteristics and stereotypes of perception. In such conditions, the study of international experience in the fight against corruption becomes especially relevant. The article discusses foreign experiences in fighting corruption. In this direction, based on the goals and tasks set by the state bodies, we define the main models of the fight against corruption. Also, an attempt was made to clarify the issues of the sphere of influence on the lifestyle and social life of the population. According to the results of a sociological survey, corruption and bribery are at a high level in the modern healthcare sector. The article stipulates the implementation of international experience in the field of fighting corruption in the field of health.

Key words: corruption, bribery, signs of bribery, public administration, dynamics, intransigent attitude, social adjustment, law.

KIRISH.

Dunyodagi globallashuv jarayonlari jamiyatni modernizatsiya qilish bilan birga, aholining ma'naviy va madaniy hayotini yanada yuksaltirishni taqozo etadi. Bunda, inson uchun xos bo'lgan hamda tarix davomida shakllanib ulgurgan illatlardan voz kechish qiyin jarayon hisoblandi. Jumladan, insoniyat hayotiga va jamiyat taraqqiyotiga muntazam salbiy ta'sir kuchiga ega bo'lgan korrupsiya eng og'ir illatdir. Demak, bu yovuz baloga keng ko'lamda yechim topish va qat'iy chek qo'yish, davlatning korrupsiyaga qarshi siyosatini amalga oshirishda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish eng dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

Shu bois mamlakatimizda korrupsiyani bartaraf etish, uning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayotiga salbiy ta'sirlari oldini olish mexanizmlarini takomillashtirish va bu borada yuqori samaradorlikka erishishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

“Jamiyatimizda korrupsiya balosi o‘zining turli ko‘rinishlari bilan taraqqiyotimizga g‘ov bo‘layotganligi, bu yovuz illatning oldini olmasak, jamiyatning birorta tarmog‘i rivojlanmasligi, korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a‘zolari, ta‘bir joiz bo‘lsa, «halollik vaksinasi» bilan emlanmas ekan, o‘z oldimizga qo‘ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz” - deb Prezidentimiz 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga Murojaatida ta‘kidlab o‘tgan edi [1]. Korrupsiyaga qarshi immunitetni hosil qilish uchun «korrupsioner» va korrupsiyaga shart-sharoit yaratuvchi omillarni yo‘qotish, korrupsiyani oldini olish yo‘nalishlarida sotsiologik tadqiqotlarni amalga oshirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Sotsiologik nuqtayi nazardan jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabat muhitini shakllantirish, davlat boshqaruvida korrupsiya omillarini kamaytirish, unda keng aholi ishtirokini kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Bu, o‘z navbatida, mazkur yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borish, bu orqali mamlakatimizda ijtimoiy institut sifatida korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish dolzarbligini bildirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-oktyabrdagi “Birlamchi tibbiy sanitariya yordami muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog‘liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6110-son Farmoni asosida sog‘liqni saqlash tizimida “Korrupsiyasiz soha” loyihasini amalga oshirish bo‘yicha 2021-2022-yillarga mo‘ljallangan “Yo‘l xarita”lari tasdiqlanib, ijroga qaratilgan [2].

Ushbu loyiha asosida quyidagilar ishlar amalga oshirilgan:

- tizimdagi korrupsiyaga oid holatlar haqida tezkor xabar berish uchun “1203” qisqa raqamli “ishonch telefoni” va Call-markaz ishga tushirildi;

- davlat tibbiyot muassasalarida byudjet mablag‘lari hisobidan imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarga kvota asosida order berishni to‘liq elektron shaklda amalga oshirish mexanizmi joriy etildi;

- 10 dan ortiq xizmat turlari to‘la elektron shaklga o‘tkazilib, davolash-profilaktika muassasalarining tasdiqlangan pullik xizmatlari miqdori vazirlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishi ta‘minlandi;

- sohada korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan 26 mingdan ortiq targ‘ibot materiallari tayyorlanib, 3 mingdan ziyod tibbiyot muassasalari, oilaviy poliklinika va shifoxonalarning kirish joylariga joylashtirildi hamda “Sog‘liqni saqlash xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashishga oid eslatma” tayyorlanib, tizim xodimlariga tarqatildi.

Shu bilan birga, ushbu yo‘nalishda sohani yanada takomillashtirishda to‘siq bo‘layotgan bir qator muammolar saqlanib qolmoqda [3].

METODOLOGIYA.

Etimologik jihatdan “korrupsiya” so‘zi lotin tilidagi “corruptio” so‘zidan olingan bo‘lib, mazmuniga ko‘ra “buzish, sotib olish” ma‘nolarini beradi va uning grammatik jihatdan yana bir ma‘nosi “korroziya” ya‘ni “chirish” yoki “zanglash” degan mazmunni anglatadi. Shundan kelib chiqib, bu so‘zni jamiyatga ta‘siri sifatida “hokimiyatni buzish orqali sotib olish” ma‘nosida ham tushinish mumkin. Huquqshunos tadqiqotchilar korrupsiyani “o‘z vakolati bilan savdo qilish” yoki “mansabfurushtlik” deb tariflaydilar va uning oqibatida davlatning boshqaruv tizimi tanazzulga uchrab, hokimiyat organlari jinoyi guruhlar nazorati ostiga tushishi mumkin, deb hisoblaydilar.

Milliy qonunchiligimizda mazkur atamaning aniq huquqiy ta‘rifi mavjud bo‘lmasa-da, qonunlarimizda korrupsiyaga mos keluvchi xatti-harakatga oid tushunchalar kiritib o‘tilgan.

Korrupsiya tushunchasining huquqiy jihatdan tarflanishi 2017-yil 3-yanvarda qabul qilingan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunda ham alohida izohlab o‘tilganligini aytib o‘tish zarur. Unda, “Korrupsiya – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish”, deya tarif berib o‘tilgan. Bundan tashqari, Qonunda korrupsiya harakati bilan

bogʻliq holda kuzatiluvchi “korrupsiyaga oid huquqbuzarlik”, “manfaatlar toʻqnashuvi” kabi tushunchalar ham berib oʻtilgan [4, – B.36-38].

Sogʻliqni saqlash sohasidagi korrupsiya – bu tibbiyot xodimlarining oʻz mansab mavqeidan shaxsiy manfaatlarini koʻzlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga hilof ravishda foydalanishida ifodalangan takrorlanuvchi va doimiy rivojlanib boruvchi murakkab salbiy ijtimoiy-huquqiy hodisa.

Olingan maʼlumotlar bu sohada korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etish darajasi oʻta yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Ushbu sohasida korrupsiyaning bir nechta turlari mavjud:

-sogʻliqni saqlash sohasiga ajratilgan mablagʻlarini yoki bemorlar toʻlovlari orqali olingan daromadlarni oʻzlashtirish;

-davlat xaridlari sohasida hususiy korxonalar bilan til biriktirib, davlat mablagʻlarini oʻzlashtirish, mafaatlar tuqnashuvini sodir qilish;

-toʻlov tizimida bepul yordam koʻrsatish, sugʻurta hujjatlarini soxtalashtirish yoki ayrim imtiyozli bemorlar manfaati uchun tibbiy muassasalardan foydalanish;

-dori vositalarini yetkazib berish va tarqatishda talon-taroj qilish;

-kontrafakt yoki sifatsiz dori vositalarini sotishga ruxsat berish.

Bundan tashqari, tibbiyot xodimlari orasida “pora”ning keng tarqalgan quyidagi turlari mavjud:

vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasini olganlik uchun, transport vositalarini boshqarishga yaroqliligi toʻgʻrisida, harbiy xizmatga yaroqsizligi toʻgʻrisida, jismoniy tarbiyadan ozod etilganligi toʻgʻrisida, sport turi bilan shugʻullanishga ruxsat berilganligi toʻgʻrisida, muayyan ishlarni bajarishga ruxsat berilganligi toʻgʻrisida, bemorga operatsiya sifati uchun (yaʼni “hamma kabi” emas, balki individual yondashuv bilan), oʻlimning haqiqiy sababini buzib koʻrsatganlik uchun (bunday holatlar jinoyat sodir etish bilan bevosita bogʻliq), bemorning kasalxonada qolish muddatini uzaytirish uchun, yoki aksincha bemorni kasalxonadan erta chiqarish uchun va hokazo koʻrsatiladigan “yordamlar” hisoblanadi.

Sogʻliqni saqlash sohasidagi korrupsiyaga olib keladigan sabablar va shart-sharoitlarni quyidagi guruhlariga boʻlish mumkin:

1. Iqtisodiy (aholining mulkchilik asosida keskin tabaqalanishi, iqtisodiy beqarorlik va boshqalar).

2. Siyosiy (jamoatchilik nazorati institutining rivojlanmaganligi, rahbar kadrlar tayyorlashning yetarli darajada yuqori emasligi, tibbiyot oliy oʻquv yurtlarida oʻqitishdagi korrupsiya va boshqalar).

3. Ijtimoiy (ehtiyojlarning oʻsishi va ularni qondirish imkoniyatlari oʻrtasidagi tafovut, tibbiyot xodimlarining turli toifalari uchun mehnat va yashash sharoitlarining tengsizligi, aholining mamlakatdagi sogʻliqni saqlash holatidan noroziligi va boshqalar).

4. Tashkiliy (nazorat-taftish tadbirlaridagi kamchiliklar, tibbiyot xodimlarining rasmiy faoliyati yetarli darajada tartibga solinmaganligi, sogʻliqni saqlash tizimidagi rahbar lavozimlarga tayinlashda kadrlar siyosatidagi kamchiliklar).

5. Huquqiy (rasmiy hujjatlar matnlarida mansabdor shaxslarga oʻz vakolatlarini suiisteʼmol qilishga imkon beruvchi korrupsiyaga moyil boʻlgan qoidalarining mavjudligi, shuningdek, fuqarolarning tibbiy yordam koʻrsatish huquqlarining etarli darajada huquqiy himoyasi va kafolatlari).

6. Axloqiy va maʼnaviy meʼyorlar (“shifokor – bemor” munosabatlari, koʻp holatlarda bemor shifokorni poraxoʻrlikka undashi mumkin, yoki aksincha, shifokor bemorni undashi mumkin.

Aholi salomatligi holatini tahlil qilish va prognozlashda maʼlumotlarning yetishmasligi sogʻliqni saqlash xizmatlarini tanlash, monitoring qilish, oʻlchash va yetkazib berish, tibbiy sugʻurta rejalarini ishlab chiqish resurslarini boshqarishni qiyinlashtiradi [5].

ASOSIY QISM.


Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash vaziri Amrillo Inoyatov hamkasblari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari bilan uchrashuvda tibbiyot xodimlarining oylik maoshlari va korrupsiya haqida soʻz yuritib, agar shifokor bemorni mehr bilan davolasa, soʻramasangiz ham u

sizga rozi bo‘lib barakasini berib ketadi degan mazmundagi gap ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokama qilinib, jiddiy e‘tirozlar va tanqidlarga sabab bo‘ldi.

Sog‘liqni saqlash vazirining so‘zlariga Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi ham quyidagi munosabatni bildirgan edi: “Jamoatchilik kengashi Sog‘liqni saqlash vazirligi rahbariyatining korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha boshlagan ishlarini qo‘llab-quvvatlaydi. Shu bilan birga, sharaflı kasb egalari – shifokorlarni rag‘batlantirish yo‘llaridan biri sifatida bemorlar bergan mablag‘ning e‘tirof etilishini qonunchilikka va mamlakatda olib borilayotgan korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatiga zid harakat sifatida qayd etadi. Mazkur taklif tizimda korrupsiyaviy jinoyatlar sonining ortishiga hamda shifokor kasbi mavqeining pasayishiga, sog‘liqni saqlash tizimiga xalqning ishonchi kamayishiga sabab bo‘ladi. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi va Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining qo‘shma bayonotida “Tibbiyot xodimlariga munosib mehnat sharoitini yaratish va daromadini oshirish, shuningdek, ularning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish bo‘yicha amaliy choralar ko‘rish, bunda, tibbiyot xodimlari malakasiga, ko‘rsatiladigan tibbiy xizmat hajmi, murakkablik darajasi va sifatiga qarab mehnatga haq to‘lashning toifalangan zamonaviy mexanizmlarini joriy etish” belgilangan. Jamoatchilik kengashi shifokorlarni rag‘batlantirishda bemorlardan pul olish singari (ixtiyoriy yoki ixtiyoriy emasligidan qat’iy nazar) noqonuniy xatti-harakatlarni bartaraf etish hamda haq to‘lashning toifalangan mexanizmini joriy etish Sog‘liqni saqlash vazirligining asosiy maqsadi bo‘lishi lozimligini bildiradi” [6].

Muallif tomonidan korrupsiyaga qarshi jamoatchilik fikri bo‘yicha internet tarmog‘i orqali o‘tkazilgan so‘rovda ishtirok etgan 206 nafar respondentdan 120 nafari (58,3%) sog‘liqni saqlash sohasining mansabdor shaxslari o‘z vazifalarini vijdotsizlarcha bajarishga guvoh bo‘lishganini etirof etdi [7,– B.70-75].

23. Сиз қайси соҳада мансабдор шахсларнинг ўз вазифаларини виждонсиз бажаришига дуч келгансиз? (3 тасини танланг)
206 ответов



“Ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini o‘rganish respublika Markazi tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda ham so‘rov ishtirokchilarining 43,2% bu tizimda korrupsiya darajasi yuqori ekanligi qayd etilgan [8].

Tadqiqotlar natijalaridan ko‘rinib turibdiki, bu “kasallik” ko‘p vaqtlardan buyon davom etib kelayotgan va qon-qonimizga singib ketgan illat ekanligidan dalolat bermoqda.

Holbuki, “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risidagi” qonunimizning 44-moddasiga ko‘ra, diplomini olayotgan shifokor quyidagi mazmunda qasamyod qabul qiladi:

«Shifokor degan yuksak unvonni olib, tibbiyot faoliyatiga kirishar ekanman:

o‘zimning bor bilim va mahoratimni bemorni davolashga hamda inson sog‘lig‘ini saqlashga bag‘ishlashga;

yoshi, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e‘tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi va ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar, har bir bemorga kuch-g‘ayratim va vaqtimni ayamay tibbiy yordam ko‘rsatishga;

bemorning sog‘lig‘ini shaxsiy manfaatlarimdan yuqori qo‘yishga, kamtar va halol bo‘lishga, o‘z bilim va mahoratimni doimo oshirib borishga;

shifokor sirini saqlashga;
kishilarga hamisha mehr-muruvvat va shifo topishlariga ishonch hadya etishga;
Buqrot, Abu Ali ibn Sino singari ulug' tabiblarning shonli an'alarini davom ettirishga tantanali qasamyod qilaman.

Ushbu qasamyodga umrimning oxirigacha sodiq qolishga qasamyod qilaman".

Shuningdek ular qasamyodni buzganlik uchun qonunda belgilangan javobgarlikka tortilishi ham ko'rsatib o'tilgan [9].

Shuning uchun har bir shifokor o'z kasbiga vijdonan, halollik bilan yondoshishi, korrupsiyaviy jarayonlarga faol qarshilik ko'rsatishi va murosasiz munosabatda bo'lishi zarur. O'z navbatida, bu illatni bartaraf etish uchun fuqarolarimizni ham "halollik vaksinasi" bilan emlash, ya'ni ularning ongiga halollik g'oyalarini singdirishimiz darkor.

Korrupsiyaga qarshi kurashish yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarda ma'lum bo'lishicha ayrim davlatlarda maktablar va shifoxonalarga "halollik" yoki "hayriya" qo'ntilari o'rnatilgan ekan. Biz ham shu tajribadan kelib chiqib, yurtimizdagi tibbiyot muassasalariga xuddi shunaqa qutilar o'rnatish hamda shifokorlarga minnatdorlik sifatida pul bermoqchi bo'lgan ayrim fuqarolarga o'sha mablag'larini shu idishlar ichiga tashlashini o'rgatish mexanizmini yaratish taklifini bildirmoqchimiz. To'plangan mablag'lar esa, keng jamoatchilik nazorati ostida shifoxonalar faoliyatini rivojlantirish, sohaning yaxshi ishlagan xodimlarini rag'batlantirish uchun ishlatilsa, korrupsiya va poraxo'rlikni yo'qotishga xizmat qiladi, deb o'ylaymiz.

Sog'liqni saqlash sohasidagi korrupsiya fuqarolarning tibbiyot xodimlariga bo'lgan ishonchini susaytiradi, chunki odamlar ongida tibbiyot xodimi ularga yordam berishga tayyor, hayot va sog'lig'ini saqlab qoluvchi, oxirgi umidni beradigan shaxsdir. Lekin ayrim joylarda boshqacha, noto'g'ri tashxislar, beparvolik, qo'pollik, ko'pincha pora berishga to'g'ridan-to'g'ri ishoradir. Bunday munosabat oq xalatlil insonlarga nisbatan fuqoralarda nafrat o'yg'otadi.

Lekin g'oya uchun ishlaydigan, shifokor qasamiyodiga sodiq soha vakillari ham ko'pchilikni tashkil qilishini aytib o'tishimiz zarur.

Korrupsiya jamiyatni yemirib, shaxsni ahloqiy jihatdan inqirozga uchratadigan va har qanday davlat iqtisodiyotiga salbiy ta'sir qiladigan ijtimoiy illat ekanligi ko'rib turibmiz [13,– B.30].

Eng muhimi, har bir fuqaro go'zal va betakror yurtimizning bugungi va ertangi kuni, yorug' kelajagi uchun avvalambor o'zi mas'ul ekanligini unutmasagina, jamiyatimizda korrupsiya balosiga barham beramiz.

XULOSA.

Xulosa o'rnida aytganda, 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid 2023-yilga mo'ljallangan davlat dasturining 56 va 65 maqsadlarida aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini oshirish, byudjet mablag'laridan samarali foydalanish, tibbiy xizmatlarni markazlashtirish va aholini tibbiy sug'urtalash amaliyotini joriy qilish hamda malakali shifokorlarning oylik maoshlarini bosqichma-bosqich 1.000 AQSH dollari ekvivalentiga yetkazish, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga yo'naltirgan holda sog'liqni saqlash sohasini, eng avvalo, uning dastlabki bo'g'inini, tez va shoshilinch tibbiy yordam tizimini yanada isloh qilish muhim ahamiyatga ega dolzarb masala hisoblanadi [10].

Tibbiyot muassasalarida mavjud bo'sh o'rinlarga doir ma'lumotlarni rasmiy veb-saytlarda ochiq e'lon qilish tartibini yo'lga qo'yish, korrupsiyaviy xavf-hatarlarning oldini olishga xizmat qiladi.

O'tkazilgan tadqiqotlar shifokor va hamshiralarning oylik maoshlarining kamligi va ish hajmi turlicha bo'lishiga qaramay ularga deyarli bir xil maosh to'lanishi xodimlar tomonidan ta'magirlik sodir qilishiga sabab bo'lmoqda. Tibbiyot xodimlariga bajargan har bir amaliyot uchun xizmat haqi to'lash, ko'proq mehnat qilgan xodimlar ko'proq oylik maoshlari olish tizimiga o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Sog'liqni saqlash muassasalariga ajratilgan mablag'larni turli korrupsion yo'llar bilan o'zlashtirish holatlari kuzatilayotganligini hisobga olib, ajratilgan mablag'larni shaffof holda olib

borish va kuchli jamoatchilik nazoratini oʻrnatish bilan byudjet mablagʻlari oʻzlashtirilishining oldi olinadi.

Tibbiyot sohasida zamonaviy informatsion texnologiyalarni toʻliq joriy etish bilan tizimda yuzaga kelayotgan koʻplab korrupsion omillarning bartaraf etilishiga erishiladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish hamda uni oldini olish tizimini yanada takomillashtirish toʻgʻrisida 2022-yil 1-martdagi 71-son buyrugʻini amalda bajarish ham sohada korrupsion holatlarning oldini olishga katta turtki boʻladi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy majlisga murojaatnomasi. – Toshkent, 2020.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6110-sonli Farmoni. – Toshkent, 2020.
3. Oʻzbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi rasmiy veb-sayti. – Toshkent, 2023.
4. “Korrupsiya – jamiyat taraqqiyotiga taxdid” risola / Sh. Turdiqulov. – Toshkent, 2019.
5. “Коррупция в здравоохранении и ее виды”. – г. Инза, 2017.
6. Oʻzbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi rasmiy veb-sayti, “Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi huzuridagi jamoatchilik kengashining shifokorni fuqarolar tomonidan ragʻbatlantirish masalasiga munosabati”. – Toshkent, 2023.
7. Turdikulov Sh.X. Korrupsiyaga qarshi kurash jamiyat muammosi. Monografiya. –Toshkent: Bilim va intellektual salohiyat, 2022. – B.70.
8. “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini oʻrganish respublika Markazi rasmiy sayti maʼlumotlari. – Toshkent, 2021.
9. Oʻzbekiston Respublikasining “Fuqarolar sogʻligʻini saqlash toʻgʻrisida”gi 265-I-sonli qonuni. – Toshkent, 1996.
10. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining PF-27-sonli Farmoni. – Toshkent, 2023.
11. Bekmurodov M.B. Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi. Monografiya. –Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – B.160.
12. Matibayev T.B. Oʻzbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati: “Korrupsiya – ijtimoiy xavf”. Darslik. – Toshkent. 2019. – B.232.
13. Сейтов А.П. Проблемы консолидации общества в Узбекистане. Информационно-библиотечные технологии Kutubxona.uz. – Ташкент, 2021. - №2 (50)

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

6 ЖИЛД, 2 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
ТОМ 6, НОМЕР 2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
VOLUME 6, ISSUE 2

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000